

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti xodimlarining odob-axloq va
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnomada Toshkent arxitektura-qurilish universitetida (keyingi o‘rinlarda – universitet) xodimlarning odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitilishni tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilaydi.

2. Ushbu Yo‘riqnomada korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir etishiga xizmat qiladigan sabablarni va shart-sharoitlarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda vazirlilikning me’yoriy huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Universitet xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (keyingi o‘rinlarda – O‘qitish) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Universitet xodimlarini O‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

xolislik va ilmiylik – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – xodimlarni o‘qitish shakllari, usullari va materiallar amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;

ketma-ketlilik va tizimlilik – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari, shuningdek xodimlarni o‘qitish tartibi izchil va tuzilmaviy- mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiyligi tushunchalar va voqeliklardan juz’iyalariga, oddiydan murakkabga, boshlang‘ichdan mukammallikka va h.k. o‘tish asosida amalga oshiriladi;

hammaboplilik – o‘qitish xodimlarning joriy bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlar uchun tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish;

differensial yondashuv – korrupsiyaga qarshi o‘qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo‘sishma ravishda maxsus o‘qitiladi;

o‘qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish – o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek universitetda xodimlari tomonidan bilimlar o‘zlashtirilganligini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalaniladi.

3-bob. O‘qitishning ustuvor vazifalari

5. O‘qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarini shakllantirishda universitet xodimlarni odob-axloqva korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish uchun mas’ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

- korrupsiyaning mohiyati, uning universitetdagи funksiya va tartib-taomillarida paydo bo‘lish shakllari va o‘ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari to‘g‘risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, universitetdagи Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan odob-axloq va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning axloqiy qadriyatlari va universitetdagи boshqa ichki hujjalariiga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan xulq- atvor modelini shakllantirish;

- universitetdagи xodimlarni, korrupsiyaga qarshi kurash tartib-taomillari bilan tanishtirish;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiyaviy xulq-atvor, xodimlarning odob-axloq qoidalarining buzilishiga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish.

4-bob. O‘qitishni ishlab chiqish va o‘tkazishga mas’ul shaxslar

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimlarni o‘qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek, universitetda bunday o‘qitishni monitoring va nazorat qilish uchun mas’uldir.

7. Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi hamda universitetdagи korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas’ullar (keyingi o‘rinlarda – mas’ul xodimlar) universitetdagи xodimlarni o‘qitish rejalarini tayyorlashda ishtiroy etadi, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o‘quv materiallarini ishlab chiqadi, o‘qitish o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi o‘qitish intizomi va unga doir axborotlar yig‘ilishini nazorat qiladi.

9. Universitetdagи Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi va xodimlar bo‘limi tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar (universitet tizimida belgilangan tartibda) asosida o‘quv materiallarini tayyorlash hamda o‘qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

5-bob. O‘qitish turlari va shakllari

10. O‘qitish quyidagi o‘quv dasturlarini ko‘zda tutishi lozim:

- barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish;
- universiteti xodimlarning etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish;

Universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish.

11. Umumiy korrupsiyaga qarshi o‘qitish va tashkilot tizimi xodimlarining etik xulq- atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish universitetidagi barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Universitetdagi barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

- O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o‘rnatilgan ta’qiqlar, cheklar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo‘yilgan talablar, universitetdagi xodimlarning korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotiga doir bilimlar;

Olingan bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari, jumladan universitetdagi turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, universitetdagi o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo‘llay bilish.

Korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo‘riqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.

13. Universitetdagi xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish universitetidagi barcha xodimlari uchun amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va universitetdagi qabul qilingan odob-axloq tamoyillari va qoidalariiga doir yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki bor bilimlar takrorlanishini ta’minlashi lozim.

14. Universitet xodimlari umumiy korrupsiyaga qarshi o‘qitish va universiteti xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari natijalari bo‘yicha o‘rganilgan material qanchalik o‘zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

15. Universitetdagi xodimlar savollarning kamida 80 foiziga to‘g‘ri javob bergen taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish va universitetdagi xodimlarining etik xulq- atvori qoidalari muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga to‘g‘ri javob bergen bo‘lsa, u takroriy test topshirigan kundan boshlab 5 ish kuni ichida qayta test sinovlarini topshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o‘qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitishdan

mustaqil (qo'shimcha) ravishda o'tkaziladi.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

- korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

- korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

- uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talab va tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

19. Universiteti korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (universitet) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

20. Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro metodikalarni o'rganishni o'z ichiga olishi lozim.

21. Ushbu Yo'riqnomaning 19-bandida ko'rsatib o'tilgan malaka oshirish va treninglardan o'tish yiliga kamida 10 (o'n) soatni o'z ichiga olishi lozim.

6-bob. O'qitish muddatlari va davriyligi

22. O'qitish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitet ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish, uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

23. Universitet xodimlari odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o'qitiladi.

24. Universitet xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yichayiliga bir martadan ko'p o'qitiladi:

- xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

- lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar

ro‘yxatiga kirsa;

- universitetda korrupsiyaviy harakatlar bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;

Universitet rahbari qaroriga muvofiq.

25. Universitetta ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o‘tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o‘tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi va universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitilishi shart.

O‘quv sanasini belgilashda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishning tasdiqlangan yillik jadvali, guruhda bo‘s o‘rinlar borligi (kunduzgi o‘quv shakliuchun) va mazkur bobning 22-23-bandlarida ko‘zda tutilgan o‘qitish muddatlari va davriyiligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish va universiteti xodimlarining etik xulq-atvor qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish barcha xodimlar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan yiliga bir martadan kam bo‘limgan davriylikda belgilanadi.

26. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimni egallab turgani bilan bog‘liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o‘qitish odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi har yili o‘qitish jadvalini tuzadi va 31-dekabrgacha uni universiteti tizimi rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O‘qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o‘qitish muddatlari hisobga olinadi.

O‘qitish jadvalida albatta o‘qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o‘qitish tayinlangan lavozimlar ko‘rsatiladi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mas’ul xodimlari o‘qitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda o‘qish imkoniyati bo‘lmasa (kunduzgi o‘quv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejalahtirilgan ta’til singari asosli sabablar), xodim o‘qish boshlanishidan 5(besh) ish kunidan kechiktirmay o‘qishni boshqa sanaga ko‘chirish maqsadida bo‘limni ogohlantirib qo‘yishi lozim.

7-bob. O‘qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

28. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi universitet xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitilishi doir ma’lumotlarni yig‘ib boradi va ularni har chorakda vazirlik hamda tegishli yuqori tashkilotlarga taqdim etadi.

Universitetining Korruptsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o‘quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korruptsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari

bo‘yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o‘quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug‘ilganda) ta’minlaydi.

29. Xodim unga tayinlangan o‘quv yoki uning natijalari bo‘yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o‘tmasa, xodimlar bo‘limi bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

30. O‘qitish jadvali, yo‘qlama varaqalari, test natijalari, xodim o‘qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Xodimlar bo‘limida saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

31. Ushbu Yo‘riqnomaga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilganda, korrupsiyaga qarshi o‘qitishni tashkil etish sohasidagi ilg‘or xalqaro amaliyat o‘zgargan taqdirda qayta ko‘rib chiqiladi. Universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mazkur Yo‘riqnomaga o‘zgartirish kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

32. Universitet xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqeい va boshqa omillardan qat’i nazar mazkur Yo‘riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.